

BUGUNGI ZAMONAVIY DUNYODA PEDAGOGNING IMIJI

Sotvoldiyev Mansurbek Muxammadali o'g'li

NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

Tel: +998 88 255 0719

E-mail: sotvoldiyevmansurbek525@xmail.ru

Ilmiy rahbar: Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich

NamDPI dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20556702>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi zamonaviy dunyoda pedagog imijining mazmuni, tarkibiy qismlari va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ijtimoiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Pedagog imiji faqat tashqi ko'rinish bilan cheklanmasligi, balki kasbiy kompetensiya, axloqiy mas'uliyat, kommunikativ madaniyat, raqamli savodxonlik, innovatsion fikrlash va shaxsiy namuna bilan uyg'un holda shakllanishi asoslanadi. Maqolada pedagog maqomining huquqiy mustahkamlanishi, xalqaro tajribada o'qituvchi nufuzi va zamonaviy ta'limda pedagogga qo'yilayotgan yangi talablar yoritiladi.

Kalit so'zlar: pedagog imiji, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, raqamli savodxonlik, pedagog maqomi, kommunikativ madaniyat, zamonaviy ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются содержание, структурные компоненты и социально-педагогическое значение имиджа педагога в современном мире. Подчеркивается, что имидж педагога определяется не только внешним видом, но и профессиональной компетентностью, нравственной ответственностью, культурой общения, цифровой грамотностью, инновационным мышлением и личным примером. Также анализируются правовые основы статуса педагога, международные подходы к престижу учительской профессии и новые требования современного образования.

Ключевые слова: *имидж педагога, профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, цифровая грамотность, статус педагога, коммуникативная культура, современное образование.*

Abstract. *This article examines the meaning, components and socio-pedagogical significance of the teacher's image in the modern world. It emphasizes that the teacher's image is determined not only by appearance, but also by professional competence, ethical responsibility, communication culture, digital literacy, innovative thinking and personal example. The article also discusses the legal basis of the teacher's status, international approaches to the prestige of the teaching profession and new requirements of modern education.*

Keywords: *teacher image, professional competence, pedagogical mastery, digital literacy, teacher status, communication culture, modern education.*

Kirish. XXI asr ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash va jamiyatning ma'naviy-intellektual salohiyatini oshirish bilan bevosita bog'liq. Bunday sharoitda pedagog shaxsining ijtimoiy mavqei, kasbiy obro'si va jamoatchilik ongidagi qiyofasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki tarbiyachi, maslahatchi, tashkilotchi, innovator va shaxsiy namuna bo'luvchi ijtimoiy subyektdir. Shu bois pedagog imiji ta'lim muassasasining nufuzi, ta'lim sifatiga bo'lgan ishonch va o'quvchi-talabalar motivatsiyasini belgilovchi muhim mezonlardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunida pedagog ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi, tegishli ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida belgilangan [2]. Bu yondashuv pedagog imijining huquqiy, kasbiy va axloqiy asoslari bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Demak, pedagog imiji faqat individual o'dob-axloq masalasi emas, balki davlat ta'lim siyosati, kasbiy standartlar, pedagogning ijtimoiy himoyasi va jamiyatdagi qadriyatlar tizimi bilan ham uzviy aloqadordir.

Jahon miqyosida ham o'qituvchilik kasbining nufuzi va pedagoglarning mehnat sharoitlari dolzarb masala sifatida ko'rilmogda. UNESCO tavsiyalarida o'qituvchilarni hurmat qilinadigan, qo'llab-quvvatlanadigan va yuqori malakali kasbiy kuch sifatida rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi [3]. OECD tadqiqotlarida esa o'qituvchilarning kasbiy avtonomiyasi, yetakchiligi, ishdagi qoniqishi va farovonligi ta'lim natijalari bilan bog'liq omillar sifatida baholanadi [5]. Maqolaning maqsadi bugungi zamonaviy dunyoda pedagog imijining mohiyati, tarkibiy unsurlari va ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Pedagog imiji tushunchasi keng ma'noli kategoriya bo'lib, u pedagog shaxsining jamiyat, ta'lim oluvchilar, ota-onalar, hamkasblar va ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan qanday qabul qilinishini ifodalaydi. Imij inglizcha "image" so'zidan kelib chiqib, qiyofa, tasavvur, obraz ma'nolarini bildiradi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa pedagog imiji o'qituvchining kasbiy mahorati, nutq madaniyati, axloqiy fazilatlari, tashqi madaniyati, pedagogik takt, ijtimoiy faollik va shaxsiy namunasi asosida shakllanadigan yaxlit ijtimoiy qiyofadir.

Pedagog imijining birinchi muhim tarkibiy qismi kasbiy kompetensiyadir. Zamonaviy pedagog o'z fanini chuqur bilishi, o'quv materialini hayotiy misollar bilan tushuntira olishi, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olishi, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishi lozim. O'quvchi yoki talaba pedagogning ilmiy tayyorgarligi, masalaga mas'uliyat bilan yondashuvi va doimiy izlanishda ekanini his qilsa, unda o'qituvchiga nisbatan ishonch va hurmat kuchayadi.

Ikkinchi tarkibiy qism pedagogning ma'naviy-axloqiy qiyofasidir. O'qituvchi kasbi jamiyatda yuksak mas'uliyat talab qiladigan kasblardan biri hisoblanadi. Chunki pedagogning har bir so'zi, harakati, baholashi va munosabati ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Adolat, halollik, bag'rikenglik, mehribonlik, talabchanlik va mas'uliyat pedagog imijining axloqiy asosini tashkil etadi. Agar pedagog barcha o'quvchilarga bir xil hurmat bilan yondashsa, u tarbiyaviy kuchga ega shaxs sifatida qabul qilinadi.

Uchinchi muhim unsur kommunikativ madaniyatdir. Zamonaviy pedagog o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar va rahbariyat bilan samarali muloqot qila olishi zarur. Pedagogik muloqotda so'z tanlash, tinglash madaniyati, savolga hurmat bilan javob berish, tanqidni to'g'ri ifodalash, nizoli vaziyatlarda bosiqlikni saqlash kabi jihatlar katta ahamiyatga ega. Pedagogning nutqi ravon, tushunarli va ta'sirchan bo'lsa, u ta'lim oluvchilarda ijobiy taassurot uyg'otadi.

To'rtinchi tarkibiy qism tashqi madaniyat va kasbiy etikadir. Pedagogning kiyinish uslubi, o'zini tutishi, vaqtga rioya qilishi, ish joyini tartibli saqlashi ham uning imijini shakllantiradi. Biroq tashqi qiyofa pedagog imijining faqat ko'rinadigan qatlami, xolos. U ichki madaniyat, kasbiy mas'uliyat va insoniy fazilatlar bilan uyg'un bo'lgandagina haqiqiy ijobiy imijga aylanadi. Zamonaviy ta'lim muhitida pedagogning tashqi madaniyati sodda, rasmiy, didli va ta'lim muassasasi qadriyatlariga mos bo'lishi maqsadga muvofiq.

Bugungi davr pedagog imijiga yangi talablarni ham qo'yimoqda. Ulardan biri raqamli savodxonlikdir. Masofaviy ta'lim, elektron resurslar, sun'iy intellekt vositalari, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar pedagog faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shuning uchun zamonaviy pedagog raqamli texnologiyalardan dars jarayonini boyitish, mustaqil ta'limni tashkil etish, baholashni shaffof yuritish va o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatishda foydalanishi lozim.

Ijtimoiy tarmoqlar davrida pedagogning onlayn imiji ham alohida ahamiyatga ega. Pedagogning internetdagi sahifalari, joylashtirgan fikrlari, izohlari, foto va videolari uning umumiy kasbiy qiyofasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun pedagog ijtimoiy tarmoqlarda ham kasbiy etika va madaniyatga rioya qilishi, shaxsiy fikr bildirayotganda hurmat, xolislik va mas'uliyat mezonlarini saqlashi zarur. Bugungi o'quvchi pedagogni faqat sinf yoki auditoriyada emas, balki virtual makonda ham kuzatadi.

Pedagog imiji ta'lim oluvchining motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq. O'quvchi o'z o'qituvchisida bilimdonlik, mehr, adolat, qat'iyat va hayotiy tajribani

ko'rsa, unda fanga nisbatan qiziqish ortadi. Pedagog shaxsining ijobiy qiyofasi dars mazmunining samarali o'zlashtirilishiga yordam beradi. Aksincha, befarqlik, tayyorgarliksizlik, adolatsiz baholash yoki muloqotdagi qo'pollik o'quvchida nafaqat muayyan o'qituvchiga, balki fanning o'ziga nisbatan ham salbiy munosabat shakllantirishi mumkin.

Pedagogning ijobiy imiji ota-onalar bilan hamkorlikda ham namoyon bo'ladi. Zamonaviy maktab yoki oliy ta'lim muassasasida ota-onalar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Pedagog ota-onalar bilan muloqotda ochiqlik, xolislik, hamkorlik va pedagogik madaniyatni saqlashi lozim. Ota-onaga faqat muammo haqida xabar berish emas, balki muammoni birgalikda hal etish yo'lini ko'rsatish pedagogning ijobiy qiyofasini mustahkamlaydi.

Pedagog imijining yana bir jihatini innovatsion fikrlashdir. Zamonaviy ta'limda tayyor bilimni uzatishdan ko'ra, o'quvchini mustaqil fikrlashga, savol berishga, tahlil qilishga va ijodiy yechim topishga o'rgatish dolzarbdir. Innovatsion pedagog darsni monologga emas, muloqotga aylantiradi, o'quvchilarning faolligini qo'llab-quvvatlaydi. OECDning "New Professionalism and the Future of Teaching" loyihasida ham kelajak o'qituvchisi uchun hamkorlik, kasbiy avtonomiya va manfaatdor tomonlar bilan birga rivojlanish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatiladi [7].

Pedagog imiji faqat individual xatti-harakatlar natijasi emas, balki ta'lim muassasasi madaniyati bilan ham bog'liq. Agar ta'lim muassasasida o'qituvchiga hurmat, akademik halollik, hamkorlik, ochiq muloqot va kasbiy rivojlanish muhiti mavjud bo'lsa, pedagoglarning ijobiy imiji tabiiy ravishda mustahkamlanadi. Aksincha, ortiqcha byurokratiya, asossiz bosim, adolatsiz baholash va kasbiy o'sish imkoniyatlarining cheklanishi pedagog imijiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda pedagog maqomining qonuniy jihatdan mustahkamlanishi pedagog imijini yuksaltirish yo'lidagi muhim qadamdir. "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunda pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va faoliyatining asosiy kafolatlari belgilangan [2]. Qonunda pedagogning ijtimoiy himoyasi, mehnat

sharoitlari va kasbiy faoliyatini amalga oshirish kafolatlari yoritilishi pedagog kasbining jamiyatdagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Huquqiy maqom mustahkam bo'lgan joyda pedagog o'zini himoyalangan, qadrlangan va mas'uliyatli kasb egasi sifatida his qiladi.

Xalqaro hujjatlarda ham o'qituvchi maqomi keng tushuncha sifatida talqin qilinadi. ILO/UNESCOning 1966-yildagi tavsiyasida o'qituvchilar maqomi ularning jamiyatdagi qadri, kasbiy kompetensiyasi, mehnat sharoitlari, moddiy ta'minoti va boshqa kasbiy guruhlariga nisbatan tutgan o'rni bilan bog'liq ekani ko'rsatilgan [4]. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, pedagog imiji shaxsiy xulq-atvor bilan bir qatorda tizimli qo'llab-quvvatlash va kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga ham tayanadi.

Zamonaviy dunyoda pedagog imijini zaiflashtiruvchi omillar ham mavjud. Ularga kasbiy charchash, ortiqcha ish yuklamasi, darsdan tashqari hujjatbozlik, axborot bosimi, ota-onalar va jamiyat tomonidan haddan tashqari biryoqlama talablar kiradi. OECDning TALIS 2024 natijalarida o'qituvchilarning ishdagi farovonligi, ishga qoniqishi va kasbda qolish niyatlari ta'lim tizimi uchun muhim ko'rsatkich sifatida o'rganiladi [6]. Shu sababli pedagogning ruhiy farovonligi va kasbiy motivatsiyasi imij masalasining ajralmas qismidir.

Pedagog imijini shakllantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagog doimiy o'qishi, metodik yangiliklarni kuzatishi, malaka oshirish kurslarida qatnashishi, ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va kasbiy hamjamiyatlarda faol bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zini rivojlantirgan sari uning darslari mazmunan boyiydi, metodik yondashuvi yangilanadi va o'quvchilar bilan ishlash samaradorligi oshadi.

Umuman olganda, bugungi zamonaviy dunyoda pedagog imiji ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. U tashqi ko'rinish, nutq, muomala va kasbiy etika bilan boshlanadi, biroq chuqur bilim, axloqiy mas'uliyat, raqamli madaniyat, innovatsion tafakkur, huquqiy himoya va ijtimoiy e'tirof bilan to'liq mazmun kasb etadi. Pedagogning ijobiy imiji ta'lim tizimining obro'sini oshiradi, o'quvchi-

talabalarda bilimga ishonch uyg'otadi va jamiyatda ma'rifatparvarlik muhitini kuchaytiradi.

Xulosa. Bugungi zamonaviy dunyoda pedagogning imiji ta'lim sifati, tarbiyaviy ta'sir va jamiyatning ta'lim tizimiga bo'lgan ishonchi bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Pedagog imiji tashqi qiyofa yoki muomala madaniyati bilan cheklanmaydi; u pedagogning kasbiy bilimdonligi, metodik mahorati, axloqiy mas'uliyati, kommunikativ madaniyati, raqamli savodxonligi, innovatsion fikrlashi va shaxsiy namunasi bilan belgilanadi.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, ijobiy pedagog imijini shakllantirish uchun individual va tizimli omillar uyg'un bo'lishi zarur. Individual darajada pedagog o'z ustida doimiy ishlashi, kasbiy etikaga rioya qilishi, o'quvchi-talabalar va ota-onalar bilan hurmatga asoslangan muloqot olib borishi kerak. Tizimli darajada esa pedagog maqomini huquqiy himoya qilish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim muassasasida sog'lom pedagogik muhit yaratish muhimdir.

Shu asosda aytish mumkinki, pedagogning zamonaviy imiji bilim, tarbiya, madaniyat, innovatsiya va insoniylik uyg'unligida shakllanadi. Ijobiy imijga ega pedagog o'z fani orqali bilim beradi, shaxsiy namunasi orqali tarbiyalaydi, muloqoti orqali ruhlantiradi va kasbiy mas'uliyati orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020. Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-901-son, 01.02.2024. Lex.uz.
3. UNESCO. UN recommendations on the teaching profession: What you need to know. 2024.
4. ILO/UNESCO. Recommendation concerning the Status of Teachers. 1966.
5. OECD. Results from TALIS 2024: Teacher leadership and autonomy. 2025.
6. OECD. Results from TALIS 2024: Sustaining the teaching profession. 2025.

7. OECD. New Professionalism and the Future of Teaching. OECD Education project materials.

8. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. New York: Teachers College Press, 2016.

9. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2006.